

AXBOROT- KUTUBXONALARDA MEHNATNI MUHOFAZA QILISHNING UMUMIY MASALALARI

Mannonov Yusup Otaxonovich

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

Kutubxona-axborot faoliyati fakulteti

Kutubxonashunoshlik kafedrasi o'qituvchisi

O'zbekiston Respublikasida Axborot - kutubxonachilik sohasida olib borilayotgan ishlar, chiqarilayotgan qaror va farmoyishlar, qabul qilingan Qonunlar shu sohaning taraqqiyotiga katta hissa qo'shmaqda. Yosh avlodni barkamol ruhda tarbiyalashda Axborot - kutubxonalarning ahamiyati kundan kun ortib bormoqda. Kutubxona sohasidagi ishlarni tashkillashtirish mutaxassislarning o'z ishlarini to'g'ri shakllantirishlariga bevosita bog'liqdir. Shu o'rinda Axborot - resurs markazi (ARM), Axborot - kutubxona markazi (AKM) kutubxonachilari va boshqa kutubxonachilarning mehnatini muhofaza qilish hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Har qanday mamlakatning demokratik va insonparvarlik xususiyatlardan biri - insonga bo'lgan munosabat, inson xuquqi va erkinliklari qanday himoya qilinayotganligi bilan belgilanadi. Shuning uchun xam ko'pgina mamlakatlar tarixiy rivojlanish jarayonida inson xuquqlariga oid o'z qonunlar tizimini yaratgan.

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligi e'lon qilingandan so'ng adolatli fuqarolik jamiyati va demokratik xuquqiy davlatni barpo etishga kirishdi. Har bir sohada xuquqiy normalarni qonun ustuvorligi yo'nalishida qayta ko'rib chiqdi. Xuquqiy normalar davlat bilan chambarchas bog'liq, davlatsiz xuquq bo'lishi mumkin emas, chunki davlat xuquqni keltirib chiqaradi. Xuquqiy normalarni amalga oshirishni kafolatlaydi. Har bir sohadagi xuquq mehnatga borib taqaladi.

Mustaqil O'zbekistan Respublikasi 1992 yil 8 dekabrda o'zining birinchi demokratik Konstitusiyasini e'lon qildi.

Bu Konstitusiyaning IX bobi iqtisodiy va ijtimoiy xuquqlarni himoyalashga qaratilgan. 37-moddada "Xar bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, oqilona mehnat sharoitlarida ishlash va qonunda ko'rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalanish xuquqiga egadir" deyilgan, matn davomida "Sud hukmi bilan tayinlangan jazoni o'tash tartibidan yoki qonunda ko'rsatilgan boshqa xollardan (xarbiy xizmat chog'ida, favqulodda holat sharoitida va x.k.) tashqari majburiy mehnat taqiqlanadi" deb qo'yilgan.

Shu bobning 38-moddasida "Barcha yollanib ishlayotgan fuqarolar dam olish xuquqiga egadirlar. Ish vaqt va xaq to'lanadigan mehnat ta'tilining muddati qonun bilan belgilanadi" deyilgan jumla ham ijobjiy xususiyatlarga ega.

Shuningdek 39-moddada "Xar kim qariganda, mehnat layoqatini yo'qotganda, boquvchisidan mahrum bo'lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta'minot olish xuquqiga ega. Pensiyalar, nafaqalar, ijtimoiy yordamning boshqa turlarining miqdori rasman belgilab qo'yilgan tirikchilik uchun zarur eng kam miqdordan oz bo'lishi mumkin emas" deyilgan.

Axborot-kutubxonalarda mehnatni muhofaza qilishning umumiyligi masalalari: mehnat xuquqi, ish bilan ta'minlash, mehnat shartnomasi, mehnat xuquqida javobgarlik, mehnat nizolari, ish vaqt, dam olish, mehnatni muxofaza qilish kabi mezonlar bilan hal qilinadi.

Mehnat munosabatlari deb xodim o'z mehnat qobiliyatiga ko'ra bajaradigan, ish beruvchi esa uning mehnatidan foydalanib, unga xaq to'laydigan hamda mehnatning xavfsiz sharoitlarini ta'minlaydigan munosabatlarga aytildi.

Mehnat munosabatlarining ishtirokchilari (subyektlari) o'z mehnat xuquqlarini amalga oshiruvchi Axborot-kutubxona (AK) xodimlar va ularni ishga qabul qiluvchi ish beruvchilar AK va muassasalarning yuridik shaxslardir.

Mehnatga oid xuquqiy munosabatlar mehnat xuquqlari va yuridik majburiyatlar majmuidan iborat bo'lib, murakkab va uzoq davom etish xususiyatiga ega.

Axborot-kutubxonalarda mehnat xuquqi katta ahamiyatga ega. Chunki u xodimlarni ishga qabul qilish, boshqa ishga o'tkazish va mehnat shartnomasini bekor qilish asoslarini, mehnatga xaq to'lash tizimi va shakllarini, ishdagi muvaffaqiyatlari uchun rahbatlantirish va mehnat intizomini buzganlik uchun qo'llaniladigan intizomiy jazo choralarini, mehnatni muhofaza qilish qoidalarini, yakka tartibdagi va jamoaga oid mehnat nizolarni ko'rib chiqish tartibini, mehnat shartnomasi taraflarining moddiy javobgarligini, mehnat to'g'risidagi qonun xujjatlariга rioya etilishini tekshirish va nazorat qilish qoidalarini belgilaydi. Mehnat to'g'risidagi qonun xujjatlari O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi (MK) va Qonunlari, Oliy Majlis qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, Qoraqalpog'iston Respublikasining Qonunlari va Jo'qorg'i Kenges qarorlari, O'zbekiston Respublikasi hukumatining hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi hukumatining qarorlari, davlat hokimiyati boshqa vakillik va ijroiya

organlarining qarorlari hamda mehnatga oid boshqa normativ xujjalardan iborat.

Axborot – kutubxona sohasida chiqarilayotgan qonunlar, qarorlar, farmoishlar ham shu soha mehnat faoliyatlarini normalashtirishda, himoya qilishida muhim xujjalarni bo'lib hisoblanadi. Ayniqsa jamoa shartnomalari Axborot-kutubxona muassasalarida muhim rol o'ynaydi Mehnat kodeksi, jamoa shartnomalari va kelishuvlari xodimlar bilan ish beruvchilarning mehnat munosabatlarini shartnoma asosida tartibga soluvchi va ularning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini muvofiqlashtirishga yordam berishga, xodimlarga xaq to'lash, ularning kafolatli kompensatsiya to'lovlarini, boshqa imtiyoz, ijtimoiy va mehnat xuquqlariga oid normalarni o'z ichiga oluvchi normativ xujjat hisoblanadi.

Axborot – kutubxona muassasalarida mehnatga oid munosabatlar O'zbekiston Respublikasining 1996 yil 1 apreldan kuchga kirgan Mehnat kodeksi, 1990 yil qabul qilingan Mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi Qonuni, 2011 yil 13 apreldagi O'RQ "Axborot – kutubxona faoliyati to'g'risida"gi Qonuni, Axborot – kutubxona faoliyatiga oid meyoriy xuquq hujjalarni asosida tartibga solinadi. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksining bir qator moddalarida mehnatga oid munosabatlari tartibga soluvchi normativ xujjalarni, ularning vazifalari mehnat xuquqi himoyasi, xodim va ish beruvchilarning xuquqi, jamoa vakillari vazifalari bir qator moddalarda aniq belgilab berilgan.

Jumladan: Mehnatga oid munosabatlarni tartibga soluvchi normativ hujjalarni O'zbekiston Respublikasida mehnatga oid munosabatlar mehnat to'g'risidagi qonun xujjalari, jamoa kelishuvlari, shuningdek jamoa shartnomalari va boshqa lokal normativ xujjalarni bilan tartibga solinishi MK-1-moddada ko'rsatilgan.

Mehnat to'g'risidagi qonun xujjalarning vazifalari va mohiyati MK-2-moddada ko'rsatilgan.

Mehnat to'g'risidagi qonun xujjalarni xodimlar, ish beruvchilar, davlat manfa'tlarini e'tiborga olgan holda, mehnat bozorining samarali amal qilishini, xaqqoniyligini va xavfsiz mehnat shart-sharoitlarini, xodimlarning mehnat xuquqlarini va sog'lig'i himoya qilinishini ta'minlaydi, mehnat unumdarligining o'sishiga, ish sifati yaxshilanishiga shu asosda barcha aholining moddiy va madaniy turmush darajasi yuksalishiga ko'maklashadi.

Axborot – kutubxona muassasalarida mehnat to'g'risidagi qonun xujjalarni xodimlarning mehnatini ximoya qilish bilan birgalikda, foydalanuvchilar, kitobxonlarga axborot – kutubxona xizmati ko'rsatishni

yuqori saviyada eng samarali usullardan foydalangan holda zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etish, ma'naviy ongini o'stirishga qaratilgan.

Mehnatga oid munosabatlarni qonunlar orqali va shartnomalar asosida tartibga solishning o'zaro bog'liqligi MK- 4- moddada belgilab berilgan.

Qonunlardagiga nisbatan qo'shimcha mehnat xuquqlari va kafolatlari boshqa normativ xujjatlar, shu jumladan shartnomaga yo'sinidagi xujjatlar (jamoa kelishuvlari, jamoa shartiomalari, boshqa lokal xujjatlar), shuningdek xodim va ish beruvchi o'rtaida tuzilgan mehnat shartnomalari bilan belgilanishi mumkin.

Axborot – kutubxona muassasalarida, Axborot – kutubxona markazining va Axborot – resurs markazining namunaviy Nizomlari asosida markazlarning, kutubxonalarning asosiy vazifalari, funksiyalari, xuquq va majburiyatlarani aniq belgilab berilgan.

Mehnat xuquqlarini ximoya qilish MK- **8-moddada ko'rsatib o'tilgan bo'lib** xar bir shaxsning mehnat xuquqlarini himoya qilish kafolatlanadi, bu himoya mehnat to'g'risidagi qonun xujjatlariga riosa qilinishini tekshiruvchi va nazorat qiluvchi organlar, shuningdek mehnat nizolarini ko'rvuchi organlar tomonidan amalga oshiriladi.

Axborot – kutubxonalarda mehnat xuquqlarini ximoya qilish qonun yo'li bilan hal etiladi.

Mehnat kodeksining **9-moddasida mehnat sohasidagi davlat boshqaruvi ko'rsatib o'tilgan. Mehnat to'g'risidagi qonun xujjatlariga riosa etilishini tekshirish va nazorat qilish aniq belgilab berilgan. Shunga asosan mehnat** sohasidagi davlat boshqaruvini O'zbekiston Respublikasi Mehnat vazirligi va uning xududiy organlari amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi hududida mehnat to'g'risidagi qonunlarning aniq va bir xil ijro etilishi ustidan nazorat olib borish O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va unga bo'y sunuvchi prokurorlar tomonidan olib boriladi.

Axborot-kutubxona xodimning asosiy mehnat xuquqlari MK- 16- moddada berilgan.

Xar bir xodim:

- o'z mehnati uchun qonun xujjatlarida belgilangan eng kam oylik ish xaqidan oz bo'Imagan miqdorda xaq olish;

- muddatlari chegarasi belgilangan ish vaqtini o'rnatish, bir qator kasblar va ishlar uchun ish kunini qisqartirish, xar haftalik dam olish kunlari, bayram kunlari, shuningdek xaq to'lanadigan yillik ta'tillar berish orgали ta'minlanadigan dam olish;

- xavfsizlik va gigiyena talablariga javob beradigan sharoitlarda mehnat qilish;

- kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish;
- ish bilan bog'liq holda sog'lig'iga yoki mol-mulkiga yetkazilgan zararning o'rnnini qoplash;
- kasaba uyushmalariga hamda xodimlar va mehnat jamoalarining manfaatlarini ifoda etuvchi boshqa tashkilotlarga birlashish;
- qariganda, mehnat qobiliyatini yo'qtganda, boquvchisidan mahrum bo'lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta'minot olish;
- o'zining mehnat xuquqlarini himoya qilish, shu jumladan sud orqali himoya qilish va malakali yuridik yordam olish;
- jamoalarga doir mehnat nizolarida o'z manfaatlarini quvvatlash xuquqiga egadir.

Mehnat jamoasi mehnatga oid munosabatlarning subyekti sifatida MK-19-moddasida aytib o'tilgan. Shu moddaga muvofiq o'z mehnati bilan AK faoliyatida mehnat shartnomasi asosida ishtirok etayotgan uning barcha xodimlari AK mehnat jamoasini tashkil etadilar.

Mehnat jamoasining burchlari, uning vakolatlari, ularni amalga oshirish tartibi va shakllari qonunlar va boshqa normativ xujjatlar bilan belgilanadi.

Jamoa shartnomasi - AKlarda ish beruvchi bilan xodimlar o'rtasidagi mehnatga oid ijtimoiy-iqtisodiy va kasbga oid munosabatlarni tartibga soluvchi normativ xujjat hisoblanadi

Jamoa kelishuvi-muayyan kasb, tarmoq, xudud xodimlari uchun mehnat shartlari, ish bilan ta'minlash va ijtimoiy kafolatlar belgilash borasidagi majburiyatlarni o'z ichiga oluvchi normativ xujjatdir. Jamoa shartnomalari va kelishuvlari xodimlar bilan ish beruvchilarning mehnatga oid munosabatlarni shartnoma asosida tartibga solishga va ularning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini muvofiqlashtirishga yordam berish maqsadida tuziladi.

Jamoa shartnomalari va kelishuvlari bir tarafdan, xodimlar tomonidan kasaba uyushmalari yoki o'zları vakolat bergen boshqa vakillik organlari orqali, ikkinchi tarafdan - bevosita ish beruvchi yoki u vakolat bergen vakillar tomonidan tuziladi.

Jamoa shartnomalarida:

- mehnatga xaq to'lash shakli, tizimi va miqdori, pul mukofotlari, nafaqalar, kompensatsiyalar, qo'shimcha to'lovlar, xodimlarni ish bilan ta'minlash, qayta o'qitish, ishdan bo'shatib olish shartlari, ish vaqt va dam olish vaqt, mehnat ta'tillarining muddatlari va boshqa bir qator muhim masalalar ko'rsatib o'tiladi

Shuningdek mehnat kodeksining 41-moddasida jamoa shartnomasining amal qilish muddati ko'rsatilgan.

Jamoa shartnomasi imzolangan vaqtdan e'tiboran yoki jamoa shartnomasida ko'rsatilgan kundan boshlab kuchga kiradi hamda ta'raflar belgilagan muddat davomida amal qiladi.

Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha asosiy talablar "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonun, Mehnat kodeksi, shuningdek, boshqa normativ xujjalalar va texnik standartlarda belgilangan.

Masalan, "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunning 8-moddasida mehnatni muhofaza qilishning normativ ta'minlanishi tartibida Vazirlar Mahkamasi zimmasiga O'zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi bilan birgalikda ishlab chiqarishda mehnat xavfsizligi uchun zarur bo'lgan talablar darajasini belgilash vazifasi yuklatilgan.

Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha ish beruvchining zimmasiga yuklangan majburiyatning bajarilishini Axborot -kutubxona muassasa rahbari ta'minlashi shart, o'z navbatida, u boshqa mansabdor shaxslari va shu maqsadda tuzilgan mehnatni muhofaza qilish xizmati mutaxassislari o'rtasida tegishli vazifalarni taqsimlaydi va ularga kerakli vakolatlarni beradi.

Bu borada Axborot - kutubxonalarining mehnat jamoalari va ularning vakillik organlariga zaruriy vakolatlar berilgan, ular Axborot-kutubxonalarda mehnat muhofazasi bo'yicha tadbirlarni rejalashtirishda, shu maqsad uchun ajratilgan mablag'larni taqsimlashda bevosita ishtirop etish va ularning sarflanishini nazorat qilish xuquqiga ega.

Axborot - kutubxona muassasa raxbari, birinchi navbatda, mehnatni muxofaza qilish xizmatining mehnat va mehnatni muxofaza qilish xaqidagi qonunlar va boshqa normativ xujjalalar talablariga mos holda faoliyat yuritishi, xar bir xodimni mehnatini qadrlashi, ish sharoyitini tubdan yaratib berishi,himoya qilishi lozim. Yuqoridaqilarga amal qilgan rahbar albatta jamoasi bilan yuksak marralarga erishishi kafolatlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. A. Saidov va boshq. Davlat va huquq asoslari darslik T.: 2002 y.
2. Q. Yormatov, Y. Isamuhamedov. Mehnatni muhofaza qilish. (Darslik.) T., 2002 y.
3. Axborot-kutubxona va ARM markazlari ishini tashkil qilish. Hujjalalar to'plami. T., 2007 y.
4. Inson huquqlari — oliy qadriyat. T., A. Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxona nashriyoti, 2007 y.

5. E.A. Sokolov. Mehnat va huquq. Qo'llanma. T., 2009 y.
6. Yu.Mannonov, K.Mavlyanov "Mehnatni muhofaza qilish" T.: Ilm Ziyo nashriyoti 2015 y. 96 b.

Internet saytlari

www.ziyonet.uz

www.google.ru

www.Natlib.uz

www.kitob.uz

Kalit so'zlari:

O'RQ- O'zbekiston respublikasining Qonuni.

AK- Axborot- kutubxona

AKM- Axborot- kutubxona markazi

ARM-Axborot- resurs markazi

MK- Mehnat kodeksi

Axborot - kutubxona muassasalarida mehnatni muhofaza qilishning umumiylari masalalari maqolasiga annotatsiya

O'zbekiston Respublikasida Axborot - kutubxonachilik sohasida olib borilayotgan ishlar, chiqarilayotgan qaror va farmoyishlar, qabul qilingan qonunlar shu sohaning taraqqiyotiga katta hissa qo'shamoqda. Shu o'rinda Axborot – kutubxona kutubxonachilarning mehnatini muhofaza qilish hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Maqolada Axborot-kutubxonalarda mehnatni muhofaza qilishning umumiylari masalalari: mehnat xuquqi, ish bilan ta'minlash, mehnat shartnomasi,mehnat xuquqida javobgarlik, mehnat nizolari,ish vaqt, dam olish, mehnatni muhofaza qilish kabi masalalar yoritib berilgan.

Аннотация к статьи:

Общие вопросы охраны труда в библиотечных учреждениях.

В Республике Узбекистан проводимая работа в сфере информации и библиотечного дела, изданные постановления и распоряжения, принятые законы вносят большой вклад в развитие этой сферы. На сегодняшний день защита труда библиотекарей информационно-библиотечного дела является одной из актуальных задач современности. В статье освещены общие вопросы охраны труда в информационных библиотеках: трудовое право, занятость,

трудовой договор, ответственность по трудовому праву, трудовые споры, режим рабочего времени, отдых, охрана труда.

Annotation to the article on general issues of labor protection in library institutions.

In the Republic of Uzbekistan, the work carried out in the field of information and librarianship, issued decisions and orders, adopted laws make a great contribution to the development of this field. At this point, protecting the work of information-library librarians is one of the urgent tasks of today. The article covers the general issues of labor protection in information libraries: labor law, employment, labor contract, liability in labor law, labor disputes, working hours, rest, labor protection.